

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM TARBIYA JARAYONLARIGA
OTA-ONALARNING ISHTIROKI FAOL VA UNING BOLA TARBIYASIGA
IJOBİY TA'SIRI**

Buranova Saltanat Abdumumin qizi

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lif kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada biz maktabgacha yoshdagি bolalar va ularning maktabgacha ta'lif tashkilotida bo'lgan vaqtlarini mazmunli tashkil etish va bunda ota-onalarning faol ishtirok etish masalalariga to'xtalib o'tamiz. Tashkilotda tarbiyachi bolani ota-ona qo'lidan qabul qilib olar ekan, o'sha qisqa vaqt oralig'ida ota-ona bilan hamkorlikning ilk bosqichlari boshlanadi. Ayni paytdagi o'sha qisqa vaqt oralig'ida ham o'z kasbining ustasi, kreativ tarbiyachi ota-onalar bilan samarali hamkorlikni amalga oshirib oladi. Buning uchun tarbiyachidan nimalar talab etilishi to'grisida quyida suhbatlashamiz.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lif, bolalar, o'quv-tarbiya, ota-ona, hamkorlik, ijod, tarbiyachilar, qulay muhit, kreativlik, bilim, malaka, jamoa, mudira.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodga, ayniqsa, maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga qaratilayotgan e'tiborning yuksak darajada ekanligi barchamizga sir emas. "Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga" shiori yanada baralla jaranglamoqda. So'nggi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. MTT tarbiyachilari oilaning bolani ilk tarbiyachisi sifatidagi ustivor mavqeyini e'tirof etishlari juda muhim. Zamonaviy MTT tarbiyachisi ijtimoiy psixolog bo'lmasi mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Pedagoglar ota-onalar bilan bola haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagи va MTT dagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug'diradigan barcha jihatlarni mammuniyat bilan muhokama qilishlari kerak. Muloqotlar ochiqcha va ishonchli bo'lish uchun albatta ma'lum vaqt talab qilinadi. Mahoratli MTT tarbiyachisi oilalar bilan aloqa qilishda quyidagi tamoyillarga riosa qiladi:

- Vaqt topadi, imkoniyat yaratadi;

□ Ota-onalarning o'z fikr-mulohazalari, quvonchlari, tashvishlari va niyatlarini gapirib berishlarini doimiy qo'llab-quvvatlaydi;

□ Ko'z-ko'zga tushib suhbat qilish mumkin bo'lgan qulay joyni tanlaydi;

□ Ma'lumotlarga doim maxfiy sir sifatida munosabatda bo'ladi;

Oilalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma'lumotlarni o'rtoqlashadilar, binobarin, ularni sir saqlash muhim. Ishlaydigan ota-onalarda ko'pincha bo'sh vaqt juda kam bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo'lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar bog'cha va uy o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirish uchun juda muhim. Ota-onalarning imkoniyatlardan kelib chiqib, muloqot uchun norasmiy vaqt belgilanganda uchrashuv jadvali o'zgaruvchan qilib tuzulishi hamda kun avvali va oxiridagi erkin suhbatlashish sharoitiga muvofiqlashtirilishi kerak. Ota-onalarning MTT ostonasini xatlab o'tar-o'tmas bolalarni shosha-pisha tashlab ketishlaridan iborat holatlarni kamaytirish uchun shunday tartib o'rnatish kerakki, unga muvofiq ota-onalar masuliyatni yana bir bor his qilishlari lozim. V.A.Suxomlinskiy, "tarbiya va rivojlanish vazifalari bolalar mактабтагача та'lim tashkilotlari oila bilan aloqani saqlab, uni o'z ishiga jalb qilgan taqdirdagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkinligi"ni ta'kidlaydi.

Darhaqiqat bolalarning ta'lim-tarbiyasida MTT pedagoglari, jamoat tashkilotlari va oilalarning bирgalikdagi faoliyati orqaligina yuksak muvaffaqiyatlarga erishish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi. Agar bunday birdamlik va say-harakatlarni muvofiqlashtirishga erishilmasa, unda muvaffaqiyatga erishish qiyin.

MTT bilan oila va jamoatchiligining o'zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy printsiplarga asoslanadi:

1. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi do'stona muloqot. Ushbu printsip muloqotga ijobjiy munosabatni bildiradi va ilk bolalik ta'limi tarbiyachilarining ota-onalar bilan olib boradigan barcha ishlariiga asoslanadi. Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi va bu butun oilaning mak-tabgacha ta'limga munosabati qanday bo'lishiga bog'liq. Har kuni tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi xayrixohlik aloqasi alohida o'tkaziladigan tadbirdan ko'proq narsani anglatadi. Ushbu tamoyil muloqotga ijobjiy munosabatni nazarda tutadi va tarbiyachilar butun faoliyati davomida ota-onalar bilan ishlashi uchun zamin yaratadi. Tarbiyachilarning ota-onalar kategoriyalari bilan muloqotida talabchan ohang mos emas.

2. Individual yondashuv. Hamkorlikning ushbu printsipi nafaqat bolalar bilan ishlashda, balki ota-onalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar bilan muloqotda bo'lgan tarbiyachilar vaziyatni, ota-onalarning kayfiyatini his qilishlari kerak. Bu yerda tarbiyachilarning ota-onalarga ishonchi, hamdardligi va birgalikda muayyan vaziyatda bolaga qanday yordam berishini o'yash qobiliyati va pedagogik qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

3. Murabbiylilik emas, hamkorlik. Aksariyat zamonaviy onalar va otalar ziyoli, bilimli va albatta, o'z farzandlarini qanday tarbiyalash kerakligini yaxshi bilishadi. Shuning uchun bugungi kunda pedago-gik bilimlarni o'rgatish va oddiy targ'ib qilish pozitsiyasi ijobjiy natijalarga olib kelishi mumkin emas. Og'ir pedagogik vaziyatlarda oilaga o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, oilaviy muammolarini tushunish va yechimini topishda MTT jamoasining oila muammolarini hal qilishda samimiy yordam bermoqchi ekan-ligini e'tirof qilishi kerak.

4. Dinamiklik. MTT bugungi kunda oddiy faoliyat ko'rsatish rejimida emas, balki rivojlanish rejimida bo'lisci kerak, mobil tizim bo'lisci, ota-onalarning ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlarga, ularning ta'lim ehtiyojlariga va ta'limga bo'lgan talablariga tezda javob berishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda MTTning oila bilan ishslash shakli va yo'nalishlari o'zgarishi kerak.

5. Ochiqlik. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila uchun ochiqligi – har bir ota-onaga uning bolasi qanday yashayotganini va rivojlanishini bilish va ko'rish imkoniyatini yara-tib berishdan iboratdir. Bu muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida shaxsiy aloqalarni o'rnatish, har kuni ota-onalarga bolaning kunni qanday o'tkazganligi, nimani o'rganganligi, qanday yutuqlarga erishganligi holda ma'lumot berib borish kerak. Shuning asosida ota-onalarning psixologik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash zamonaviy davming eng dolzarb vazifasiga aylandi .Umuman olganda, oila bu-qudratli kuch, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi asosida kafolatlangan ijtimoiy institut. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishslash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lisci kerak.

Pedagoglar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko'rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni – sekin yuguruvchilarni ham, a'lo darajada rasm chizuvchilarni ham va hatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe'l-atvorli bolalarni ham qabul qilishni o'rganadilar. Tarbiyachi shuni tushunib yetishilari kerakki, bolalar ham kattalardek o'zlariga bildirilgan samimiyatni his qiladi va sezadilar. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub jo'natish oilalar va pedagoglar jamoasi o'rtasidagi yaqinlikni taminlashga yordam beradi. Demak, oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma'naviy olmining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avval erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, xilma - xil va o'zaro bog'liq bo'lган shakl va usullar yordamida rejali va izchil ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota-onalar bolalarini birinchi marta mактабгача та'lim tashkilotisiga olib boradigan kun ko'pgina hissiy tuyg'ular bilan bog'liq, shuning uchun ham har yili avgust oyining ikkinchi yarmida ota-onalar uchun mактабгача та'lim tashkiloti bo'yicha ekskursiya, uchrashuv hamda umumiylajlislar o'tkazish mumkin. Bunda mактабгача та'lim tashkilotining kun tartibi, ish mazmuni, ta'lim - tarbiya jarayoni va hokazolar haqida so'zlab beriladi. Tarbiyachilar, tarbiyachi yordamchilari, hamshiralar bilan tanishtiriladi. Mактабгача та'lim tashkilotining mudirasi, tarbiyachilar va barcha xizmatchilari ota-onalarda yaxshi taassurotlar qoldirishga intiladilar, ota-onalar esa ularning bolalari o'z kasbini, ishini sevuvchi tarbiyachilar qo'lida bo'lishini ko'rib qanoat hosil qiladilar. Bolalarni har kuni kuzatuvchi, ularning rivojlanishida ijobiyligi va salbiy tomonlarini sezuvchi va ota-onalarga bolaga ta'sir qilishning eng samarali usullarini maslahat beruvchi tarbiyachilar oila bilan juda ko'p xilma - xil ishlarni olib boradilar. Ayrim tarbiyachilar oila bilan aloqani bolaning mактабгача та'lim tashkilotidagi davridan boshlab, uning mакtabga o'tganidan keyin ham davom ettiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., Agzamova M.N. "Mактабгача pedagogika". – T.: Tafakkur, 2019. Darslik.
2. Mактабгача tarbiya pedagogikasi. P.Yusupova. T., "O'qituvchi" 1993. 144-b.
3. Mактабгача та'llm pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (3-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2012. – 135- b.
4. O.U. Hasanboyeva, M.X. Tojiyeva, Sh.K. Toshpo'latova va boshq. Mактабгача та'llm pedagogikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (3-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2012. – 135- b.
5. "Oilalar va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik" Metodik qo'llanma (birichi nashr) Toshkent : 2020-y. 14-b.